



SHARQ AYOLI – ZULFIYAXONIM MATONATI

Bozorboyeva Mehribon

Xorazm viloyati Yangibozor tumani

20-sonli umumiy o‘rtalim maktabi o‘quvchisi

Annotatsiya: Xalqimizning sharaflı farzandi va suyukli shoirasi, mehri-u muhabbat kuychisi, oqibat malikasi Zulfiyaxonim haqidagi ushbu maqolada shoiraning tarjimai holi bosib o‘tgan shonli hayot yo‘li bayon etilgan hamda lirk shे’rlaridan na’munalar keltirilgan. Zulfiya shе’riyatidagi insonparvarlik, muhabbat va sadoqat kabi tushunchalar ochib berilgan.

Kalit so‘z: Zulfiya, Hamid Olimjon, shе’riyat, adabiyot, ezgulik, sadoqat, muhabbat, sog‘inch, matonat.

She’riyat — qanday mo‘jizaki, u na vaqt, na millat va na bir chegara bilmaydi. O‘zbek she’riyatida shunday ijodkorlar borki, ularning ijodi asrlar o‘tsa hamki, o‘z ohangi, rangi va nafis tarovatini yo‘qotmaydi. XX asr o‘zbek she’riyatining yorqin namoyondasi Zulfiya Isroilova ijodiga ham shunday baho berish mumkin.

O‘zbek she’riyatining otashnafas shoirasi, inson ruhiyati dunyosining betakror kuychisi Zulfiyani bilmaydigan va uning biror shе’rini yod olmagan zamonamiz yoshlari bo‘lmasa kerak. Sevimli shoiramiz o‘z shе’rlari bilan bizlarni nafosatga, ezgulikka oshno etib, oppoq tong sari yetaklab, qalb harorati bilan isitib kelmoqda.

Zulfiya Isroilova — taniqli va iqtidorli o‘zbek shoirasi. Inson qalbini chuqur his qilgan — mehnatkash sharq ayolining jamiyatidagi teng huquqi uchun mardonavor kurashgan ayol. Zulfiya (1915-1996) Toshkentda hunarmand degrəzchi oilasida tug‘ilgan. Ota-onasi hunarmand bo‘lishiga qaramasdan, yuqori madaniyatli insonlar bo‘lishgan. Avval boshlang‘ich maktabda, so‘ng xotin-qizlar bilim yurtida tahsil olgan. 1935-38-yillarda O‘zbekiston fanlar akademiyasining til va adabiyot instituti aspiranturasida o‘qigan. Shundan keyin turli nashriyotlarda ishlagan. 1935-yildan 1980-yilgacha Respublikamizda keng tarqalgan “Saodat” nomli xotin-qizlar jurnalida bosh muharrir lavozimida faoliyat yuritgan.

Bilamizki, shoira o‘zbek shе’riyatining zabardast shoirlaridan biri bo‘lgan Hamid Olimjon bilan oila qurgan. Biroq ular orzularga to‘la baxtli hayot kechirayotgan bir pallada 1944-yil mashina halokati tufayli turmush o‘rtog‘idan ayrildi. Ular adabiyotimizning buyuk juftliklariga aylanib, mangulik osmonidagi yulduz bo‘lib ko‘rinadi. Hamid Olimjondan ayrılgan shoira yarim asrdan ko‘roq uning yorqin xotirasini kuylab yashadi va 1996-yilda 81 yoshida vafot etdi.

Sog‘inganda izlab bir nishon,

Qabring tomon ular edim yo‘l.

Keltirarding menga bir zamon,

Endi har chog‘ men eltaman gul.¹

Turmush o‘rtog‘i – hamkasbi Hamid Olimjondan ayrılgan kundan boshlab unda juda kuchli yolg‘izlik, qalbida esa to‘ldirib bo‘lmas bo‘shliq paydo bo‘lgan edi. Bir zamonlar latofatli shoira uchun keltirilgan gullar endi har chog‘ shoir qabri tomon eltiladi...

Shunga qaramay, u o‘z farzandlari uchun yashashi kerakligini anglagan holda, hayotini davom ettirishga majbur edi. Matonatlari ayol siyosini biz aynan Zulfiyaxonim ijodida kuzatamiz. Zulfiya ijodining har bir satrida hayotsevarlik hissi ufurib turadi.

¹ <https://uzbaza.uz/zulfiya-isroilova-barcha-sherlari/>



Saydulla Mirzayev shoira Zulfiya haqida shunday yozadi: “Hayotda eng aziz va eng sevimli insonidan judo bo‘lgach, g‘oyat qiyaladi, ruhan azob chekadi. Lekin hayotdan voz kechmaydi, tushkunlikka tushmaydi. U hayotni kuylash, el-yurtiga sitqidildan xizmat qilish orqali o‘z dardiga davo topadi va va ana shu hayot haqiqatini g‘oyat bosiqlik va mohirlik bilan she‘r misralarining mag‘iz-mag‘iziga joylaydi.”²

“Hayot jilosi” she‘ridan olingan quyidagi misralar ham yuqoridagi fikrlarni to‘laligicha tasdiqlaydi:

“Qaradim-u ko‘zimni ortiq

Uzolmadim tirik hayotdan.

Sozim, qalbim, qo‘shig‘im bilan

Maftun bo‘ldim men qayta boshdan.”

Faxriy shoira Zulfiyadagi hayotga bo‘lgan qaynoq mehr-muhabbat go‘yo she‘r misralaridan oqib turgandek bo‘ladi. El dardiga kuyingan, xalqning quvonchiga qo‘shilib quvongan shoira o‘zgacha matonat va ilhom egasi edi.

“Menga bolalarining rizqidan qirqib hech narsa olib kelmanglar” – Zulfiya. Bu satrlar orqali uning naqadar oliyanob, halol ayol ekanliklarining guvohi bo‘lib turibmiz.

Hamon e’tiqodim- haqiqat, haqdir,

So‘zlayman yuzimni tutib Ka’baga.

Yemira olmaydi o‘tkinchi taqdir,

Osuda o‘tadi ruhim abadga.

E’zozlar, ardog‘lar uchun tashakkur,

Asli siz Oftobim, men ziyyosiman.

Tonglaringiz kulsin dorilamon hur,

Baxtim shul – O‘zbekning Zulfiyasiman.

Ona-yurt, sevgi, bahor tarannumidagi bunday go‘zal satrlardan nurlangan har bir ko‘ngil hamisha shunday samimiyl izohlarga mushtoq. Kindik qoni to‘kilgan go‘shaga muhabbat, ona tabiatning betakror manzalariga, oppoq tonglariga cheksiz sadoqat, go‘zal qalb sohibasining otashin satrlaridir.

Matonatli o‘zbek ayoli. Zulfiyaxonim o‘zining hayoti va ibratl yo‘li bilan barchaga namuna, yoshlarimiz uchun sadoqatli ona va vafo timsolidir. Darhaqiqat, Zulfiyaxonim bosib o‘tgan yo‘l – shodlik, baxt va yo‘qotishlar, do‘sstar, ustoz-shogirdlar, qilingan ishlar va ushalmagan orzular, amalga oshmay qolgan rejalar... U turmushning mashaqqatli va zarvorli yo‘llarini kechib, o‘rik gullari, ko‘klam chechaklarining nafosati, go‘zalliklaridan ilhom olib, barchasini she‘rga soldi. Shuning uchun ham she‘rlari qalbimizda hali hamon jaranglaydi, bahorning kirib kelishi go‘yo tabiat uyg‘onishi bilan uyg‘un holda otashli satrlari dillarimizga mehr-muhabbat kabi sof tuyg‘ularini armug‘on etaveradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Zulfiyaxonim o‘zbek she‘riyatida o‘ziga xos o‘ringa ega shoira bo‘lishi bilan birga shu xalqning barcha oliyanob xislatlariga ega ayol bo‘lgan Zulfiyaxonimning hayoti va ijodi barcha xotin-qizlar uchun ibrat. Negaki, uning hayotidagi mehnatsevarligi, doimo olg‘a intilishi, sevgi bobida sadoqatli yor ekanligi, badiiy ijom borasida tinimsiz izlanuvchanligi hamda hayot

² Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti:-Toshkent:Yangi asr avlod,2005



qiyinchiliklarida esankiramasligi, erishilgan yutuqlar oldida o‘zini yo‘qotmasligi har qanday qiz yoki ayol qalbida havas uyg‘otadi.

www.worldlyknowledge.uz